



*Shaxnoza MIRZAJIDINOVA,*  
*Angren universiteti katta o'qituvchisi,*  
*Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi mustaqil izlanuvchisi*  
*E-mail:mirzamidinovashaxnoza@gmail.com*

*DSc, professor D.Solliyeva taqrizi asosida*

#### VIEWES OF THE JADIDS OF TURKESTAN ON LANGUAGE AND ORTHOGRAPHY.

Annotation

This article analyzes the views of the Jadid intelligentsia working in Turkestan at the beginning of the 20th century on the language issue. Based on historical sources, the article highlights the efforts of the Jadids to develop their native language, form literary and linguistic standards, and strengthen the position of the national language in education and the press. A comparative analysis of the views on language of such Jadids as Mahmudkhoja Behbudiy, Abdullah Avloniy, Munavvarkori Abdurashidkhanov, Abdurauf Fitrat, and Ashurali Zohiri is also carried out.

**Key words:** Jadidism, language policy, national language, Enlightenment, Turkestan, press, school reform.

#### ВЗГЛЯДЫ ДЖАДИДОВ ТУРКЕСТАНА НА ЯЗЫК И ОРФОГРАФИЮ.

Аннотация

В данной статье анализируются взгляды джадидской интеллигенции, работавшей в Туркестане в начале XX века по языковому вопросу. На основе исторических источников освещаются усилия джадидов по развитию родного языка, формированию литературно-языковых стандартов и укреплению позиций национального языка в образовании и печати. Также проводится сравнительный анализ взглядов на язык таких джадидов, как Махмудходжа Бехбудий, Абдулла Авлоний, Мунавваркори Абдурашидханов, Абдурауф Фитрат, Ашурали Зохири.

**Ключевые слова:** Джадидизм, языковая политика, национальный язык, Просвещение, Туркестан, пресса, школьная реформа.

#### TURKISTON JADIDLARINING TIL VA IMLO MASALASIDAGI QARASHLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada XX asr boshlarida Turkistonda faoliyat yuritgan jadid ziyolilarining til masalasiga oid qarashlari tahlil qilinadi. Jadidlarning ona tilini rivojlantirish, adabiy til me'yorlarini shakllantirish, ta'lim va matbuotda milliy til mavqei mustahkamlash yo'lidagi sa'y-harakatlari tarixiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat Ahurali Zohiriy kabi jadidlarning til haqidagi qarashlari qiyosiy tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Jadidchilik, til siyosati, milliy til, ma'rifatparvarlik, Turkiston, matbuot, maktab islohoti.

**Kirish.** XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlar milliy uyg'onish harakati – jadidchilikning shakllanishiga zamin yaratdi. Jadidlar jamiyatni isloh qilish, xalqni ilm-ma'rifatga chorlash, zamonaviy ta'lim tizimini joriy etish bilan birga, til masalasini ham millat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri sifatida ko'rdilar.

Til – millatning asosiy belgisi, uning ma'naviy qiyofasi va tarixiy xotirasini mujassam etuvchi vosita ekanini jadid ziyolilari chuqur anglagan edilar. Shu bois ular eski maktab va madrasalardagi ta'lim usullarini tanqid qilib, o'qitishni xalq tushunadigan, sodda va ravon tilda olib borish zarurligini ta'kidladilar.

Mazkur maqolaning maqsadi – Turkiston jadidlarining til masalasiga oid qarashlarini tahlil qilish, ularning milliy adabiy tilni rivojlantirish, ta'lim va matbuotda ona tilining o'rmini mustahkamlash borasidagi faoliyatini ilmiy asosda yoritishdan iborat.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Turkiston jadidlarining til va imlo masalasiga oid qarashlari masalasi o'zbek va xorijiy tarixshunoslikda nisbatan keng o'rganilgan mavzulardan biri hisoblanadi. Jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy va madaniy jihatlarini ko'plab tadqiqotlarda yoritilgan bo'lsa-da, aynan til siyosati, adabiy til me'yorlarining shakllanishi va yozuv islohoti masalalariga bag'ishlangan maxsus tahlillar alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tarixshunosligida jadidchilik fenomenini kompleks o'rgangan tadqiqotchilar qatorida D. Alimovning ishlari muhim o'rin tutadi. Uning "Jadidchilik fenomeni" asarida jadidchilik harakatining mafkuraviy asoslari, ijtimoiy tayanchi va tarixiy ahamiyati keng yoritilgan bo'lib, unda til va ma'rifat masalasining milliy uyg'onish jarayonidagi o'rni alohida ta'kidlanadi. Muallif jadidlar faoliyatida ona tilini rivojlantirish masalasi millatni uyg'otish va zamonaviy ta'limni joriy etish bilan uzviy bog'liq bo'lganini ko'rsatadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda jadidlarning madaniy siyosati va sovet davridagi murakkab tarixiy sharoit masalalari ham muhim o'rin egallaydi. Z. Ishanxodjayeva asarlarida 1920–1950-yillardagi madaniy siyosat, jumladan, yozuv islohoti va uning oqibatlarini kontekstida jadid merosiga munosabat tahlil qilinadi. Bu tadqiqotlar jadidlarning til va yozuv borasidagi qarashlarini faqat ma'rifiy emas, balki siyosiy jarayonlar bilan ham bog'liq holda ko'rib chiqish imkonini beradi.

Jadidlar davriga yaqin manbalar orasida Miyon Buzruk Solihovning "O'zbek adabiyotida millatchilik ko'rinishlari" asari alohida e'tiborga loyiq. Unda XX asr boshidagi adabiy jarayonlar, til va milliy ong masalalari muayyan darajada mafkuraviy ruhda talqin qilingan bo'lsa-da, davr muhitini tushunish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, Zaki Validi To'g'onning "Bugungi Turkiston va yaqin moziysi" hamda "Xotiralar" asarlarida

Turkiston ziyolilari, jumladan, jadidlarning madaniy va ma'rifiy faoliyati, til va yozuv masalasidagi bahslar haqida qimmatli kuzatuvlar uchraydi.

Tilshunoslik yo'nalishidagi tadqiqotlar ham mazkur mavzuni yoritishda muhim manba hisoblanadi. A. Nurmonov va N. Mahmudovning "O'zbek tilshunosligi tarixi" asarida o'zbek adabiy tilining shakllanish bosqichlari, jadidlar davridagi islohotlar va lingvistik qarashlar ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Bu asarda jadidlarning tilni soddalashtirish, uni xalq tiliga yaqinlashtirish borasidagi sa'y-harakatlari umumiy tarixiy jarayon doirasida ko'rib chiqiladi.

Davriy matbuot materiallari ham jadidlarning til va imlo masalasidagi qarashlarini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Xususan, "Turkiston", "Sadoyi Farg'ona" kabi gazetalar sahifalarida e'lon qilingan maqolalarda yozuv islohoti, atamalar masalasi, ta'lim tili haqida jonli munozaralar aks etgan. Ne'mat Hakimning "Tag'in imlo janjali" maqolasi, Ashurali Zohiriyning "Ona tili" mavzusidagi chiqishlari bu boradagi bahslarning qanchalik dolzarb bo'lganini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda ayrim jadid arboblari faoliyatiga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar ham paydo bo'lmoqda. Xususan, Ashurali Zohiriy shaxsi va merosiga bag'ishlangan tadqiqotlar uning til va imlo masalasidagi qarashlarini chuqurroq tahlil qilish imkonini bermogda. Bu ishlar Zohiriyning yozuv islohoti masalasidagi ehtiyotkor va murosalni pozitsiyasini, uning amaliy-ma'rifiy yondashuvini ochib beradi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar jadidlarning til va imlo masalasidagi qarashlari keng tarixiy, madaniy va siyosiy kontekstda o'rganilganini ko'rsatadi. Biroq ko'plab tadqiqotlarda bu masala umumiy jadidchilik harakati doirasida yoritilib, ayrim shaxslar (xususan, Behbudiy, Avloniy, Fitrat va Zohiriy) qarashlarining qiyosiy tahliliga yetarli darajada e'tibor qaratilmagan. Shu bois mazkur maqolada aynan ushbu jadid ziyolilarining til va imlo borasidagi qarashlarini qiyosiy va tahliliy yondashuv asosida ko'rib chiqish maqsad qilib qo'yildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot jarayonida tarixiy-taqqoshlash, tahlil va sintez, manbashunoslik yondashuvlari qo'llanildi. Asosiy manbalar sifatida jadidlarning publitsistik asarlari, darsliklari, maqolalari, shuningdek, mavzu yuzasidan olib borilgan zamonaviy ilmiy tadqiqotlar foydalanildi.

Ayniqsa, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat va Ashurali Zohiriyning til, maktab va ma'rifat haqidagi qarashlari muhim manba bo'lib xizmat qildi.

**Tahlil va natijalar.** Jadidlar uchun til masalasi faqatgina lingvistik muammo emas, balki ijtimoiy va siyosiy ahamiyatga ega masala edi. Chunki ular yaxshi tushunardiki, millatni uyg'otish, xalqni zamonaviy ilm-fanga yetaklash uchun, avvalo, xalq tushunadigan tilda murojaat qilish lozim.

Eski maktablarda ta'lim asosan arab va fors tillaridagi murakkab matnlar orqali olib borilar, bu esa o'quvchilarning bilimni amalda qo'llashiga to'sqinlik qilardi. Jadidlar esa darsliklarni ona tilida, sodda va tushunarli uslubda yozish tarafdori bo'ldilar.

Shu tariqa, jadidchilik harakati doirasida til masalasi uch asosiy yo'nalishda ko'tarildi:

Ta'limda ona tilining ustuvorligi;

Matbuot va adabiyotda milliy tilni rivojlantirish;

Adabiy til me'yorlarini shakllantirish va soddalashtirish.

Mahmudxo'ja Behbudiy jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri bo'lib, u til masalasiga alohida e'tibor qaratgan. Uning fikricha, millatning taraqqiyoti, avvalo, ta'limning xalq tilida olib borilishiga bog'liq edi.

Behbudiy o'z maqolalarida maktablarda tushunarsiz, murakkab til ishlatilishini tanqid qilib, bolalarni o'qitish ona tilida, hayotga yaqin misollar orqali olib borilishi kerakligini uqtiradi. Shuningdek, u matbuotning ham xalq uchun tushunarli bo'lishi lozimligini ta'kidlab, gazeta va jurnallarda sodda, ravon tilni targ'ib qildi.

Behbudiyning "Padarkush" kabi asarlarida ham til masalasiga bo'lgan e'tibor yaqqol seziladi: asar tili xalqchil, sodda va ta'sirchan bo'lib, bu uning ma'rifiy maqsadlariga to'la mos keladi.

Abdulla Avloniy nafaqat adib va pedagog, balki til va tarbiya masalalariga chuqur e'tibor qaratgan ma'rifatparvar sifatida ham tanilgan. Uning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari tilning tarbiya va ma'rifadagi o'rnini ochib beruvchi muhim manbalardan biridir.

Avloniy tilni millatning "ruhi" sifatida baholab, ona tilini asrash va rivojlantirishni har bir ziyolining muqaddas burchi deb biladi. U o'z darslik va asarlarini xalq tushunadigan tilda yozishga intildi, shu orqali o'quvchilarning bilimni oson o'zlashtirishiga erishishni maqsad qildi.

Avloniy nazariya, begona tillarga haddan tashqari berilish milliy ongning zaiflashuviga olib kelishi mumkin edi. Shu bois u milliy tilni hurmat qilish, uni ilm-fan tili darajasiga ko'tarish zarurligini ta'kidlaydi.

Munavvarqori Abdurashidxonov jadid maktablarining tashkilotchilaridan biri sifatida ta'lim tiliga alohida ahamiyat berdi. U eski maktablardagi samarasiz usullarni tanqid qilib, yangi usul maktablarda darslar ona tilida va zamonaviy metodlar asosida olib borilishi kerakligini ilgari surdi.

Munavvarqori tuzgan darslik va o'quv qo'llanmalari til jihatidan sodda, tushunarli bo'lib, ular orqali bolalarda nafaqat savod, balki dunyoqarash ham shakllantirish ko'zda tutilgan edi.

Uning faoliyati jadidlar uchun til masalasi nazariy muammo emas, balki amaliy islohotlarning muhim qismi bo'lganini ko'rsatadi.

Abdurauf Fitrat jadidchilik harakatining eng yirik nazariyotchilaridan biri bo'lib, til masalasiga chuqur falsafiy va siyosiy ma'no yuklagan. U tilni milliy o'zlikni saqlash va mustahkamlashning asosiy tayanchi deb bildi.

Fitrat o'z asarlarida turkiy tilning boy imkoniyatlarini ko'rsatishga, uni ilm-fan va adabiyot tili sifatida rivojlantirishga chaqirdi. U ortiqcha begona so'zlar bilan tilni "og'irlashtirish"ga qarshi chiqib, tilni soddalashtirish va milliy ruhda boyitish tarafdori bo'ldi.

Fitratning qarashlarida til masalasi bevosita millat taqdiri bilan bog'lanadi. Uning fikricha, o'z tilini yo'qotgan millat o'zligini ham yo'qotadi.

Jadidlar chiqargan gazeta va jurnallar (masalan, "Taraqqiy", "Sadoyi Turkiston", "Oyna") milliy tilning rivojida muhim rol o'ynadi. Bu nashrlarda ishlatilgan til eski, murakkab uslubdan farqli o'laroq, xalqchil va sodda edi.

Matbuot orqali jadidlar keng ommaga murojaat qila oldilar, ijtimoiy muammolarni muhokama qildilar va milliy ongni uyg'otishga harakat qildilar. Shu ma'noda, jadid matbuoti nafaqat axborot vositasi, balki tilni yangilash va ommalashtirish maktabi ham bo'ldi.

XX asning 20-yillarida Turkistonda yozuv islohoti va lotin alifbosiga o'tish masalasi keng muhokama qilingan muhim madaniy-siyosiy muammolardan biri bo'ldi. Bu jarayonda jadid muhitida turli yondashuvlar shakllandi: ayrim ziyolilar lotin yozuvini taraqqiyot va savodxonlikni oshirishning samarali vositasi sifatida qo'llab-quvvatlagan bo'lsalar, boshqalar bu masalaga ehtiyotkorona, bosqichma-bosqich yondashish tarafdori bo'ldilar. Ashurali Zohiriy ana shu ikkinchi yo'nalishga yaqin bo'lgan ma'rifatparvarlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Zohiriyning publitsistik chiqishlari va umumiy qarashlaridan ko'rinadiki, u lotin alifbosini mutlaqo inkor etmagan, biroq uni birdaniga va majburiy tarzda joriy etish tarafdori ham bo'lmagan.

Uning fikricha, yozuv islohoti, avvalo, xalqning savodxonlik darajasi, maktab va matbuotning real holati bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilishi lozim edi. Aks holda, yozuvni keskin almashtirish madaniy uzilish va avlodlar o'rtasida ma'naviy bo'shliq paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin edi.

Ashurali Zohiriy til va yozuv masalasiga, asosan, amaliy-ma'rifiy mezonlar asosida yondashgan. U uchun eng muhim masala xalqning tez va oson savod chiqarishi, matbuot va darsliklarning keng omma uchun tushunarli bo'lishi edi. Shu bois u lotin alifbosining ayrim qulay jihatlari tan olgan holda, eski o'zbek yozuvi (arab grafikasi) asosidagi boy yozma merosdan uzilib qolmaslik zarurligini ham ta'kidlagan.

Jumladan, Ashurali Zohiriy "Til va imlo masalasi" (1927) maqolasida til siyosatiga amaliy-ma'rifiy mezon asosida yondashadi.

U atamalarini majburiy "o'zbekchalashtirish" va tilni sun'iy "soflashtirish" g'oyalari qat'iy rad etib, xalq qabul qilgan baynalmilal terminlarni saqlab qolish tarafdori ekanini ochiq bildiradi. Zohiriyning bu pozitsiyasi uning yozuv islohoti masalasida ham keskin va shoshma-shosharlik tarafdori emasligini ko'rsatadi. U uchun asosiy mezon - til va yozuvning xalq ommasi uchun qulay, tushunarli va amaliy foydali bo'lishidir. Shuningdek, u adabiy tilning asosi sifatida jonli xalq tilini belgilab, o'zbek adabiy tilini Farg'ona shevasi negizida me'yoralashtirish g'oyasini ilgari suradi. Bu qarashlar Zohiriyning til va yozuv masalasida madaniy uzviylik va xalqchilikni birlamchi deb bilganini ko'rsatadi.

A.Zohiriyning bu pozitsiyasi uni lotin yozuviga qarshi mutaassib sifatida emas, balki madaniy uzviylik tarafdori sifatida ko'rsatadi. U yozuv islohotini milliy madaniyat manfaatlariga mos, ehtiyotkor va bosqichma-bosqich olib borish kerak, degan qarashda bo'lgan. Shu ma'noda, uning qarashlari jadidlar orasida arab yozuvini isloh qilishni ustuvor deb bilgan guruh pozitsiyasiga yaqin turadi.

Ayni paytda A.Zohiriy zamonaviy ilm-fan va madaniyat bilan aloqani kuchaytirish zaruratini ham inkor etmagan. Biroq u bu maqsadga erishishda yozuvni keskin o'zgartirishdan ko'ra, ta'lim mazmunini yangilash, darsliklar tilini soddalashtirish va matbuotni rivojlantirish kabi omillarni birlamchi deb hisoblagan. Demak, Zohiriyning lotin alifbosiga munosabati muvofiq va ehtiyotkorona bo'lib, u bu masalani siyosiy shiorlar emas, balki ma'rifiy manfaatlar nuqtayi nazaridan baholagan.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, Ashurali Zohiriy lotin alifbosining kiritilishini to'liq rad etmagan, biroq uni shoshma-shosharlik bilan va majburiy tarzda joriy etishga ham qarshi bo'lgan. Uning bu masaladagi pozitsiyasi jadidchilik harakatidagi yozuv islohoti borasidagi qarashlarning murakkab va ko'p qirrali ekanini yaqqol ko'rsatadi.

1920-yillarda yozuv islohoti masalasi sovet maorif siyosati darajasiga ko'tarildi. Xususan, Xalq maorifi komissari A. V. Lunacharskiyning O'rta Osiyo xalqlariga yo'llagan murojaatlarida arab yozuvining murakkabligi va uning ommaviy savodxonlikni rivojlantirishdagi to'siqlari alohida qayd etiladi. U lotin asosidagi yangi alifboni savod tarqatish, ta'lim va matbuotni rivojlantirish uchun qulay vosita sifatida baholab, yozuv islohotini madaniy taraqqiyotning muhim sharti deb ko'rsatadi.

Jadidchilik harakati ko'pincha yozuv islohoti va lotin alifbosiga o'tish jarayoni bilan bog'lab talqin qilinadi. Biroq tarixiy manbalar shuni ko'rsatadiki, jadidlar orasida eski o'zbek yozuvi - arab grafikasi asosidagi yozuvni to'liq rad etmagan, balki uni muayyan

darajada himoya qilgan va isloh qilish tarafdori bo'lgan ziyolilar ham ko'p bo'lgan.

XX asr boshlarida arab yozuvi Turkiston xalqlarining ko'p asrlik yozma merosi, adabiy va diniy madaniyati bilan chambarchas bog'liq edi. Jadidlarning bir qismi bu yozuvni birdaniga bekor qilish madaniy uzilish va tarixiy xotiraning zaiflashuviga olib kelishi mumkinligini ta'kidlagan. Shu sababli ular yozuvni butunlay almashtirishdan ko'ra, avvalo uni isloh qilish, soddalashtirish va turkiy tillarning fonetik xususiyatlariga moslashtirish yo'lini maqbul deb bildilar.

Masalan, Mahmudxo'ja Behbudiy o'z maqolalarida savod o'rgatishdagi qiyinchiliklarni tanqid qilgan bo'lsa-da, arab yozuvini mutlaqo inkor etish tarafdori bo'lmagan. U asosan ta'lim metodlarini yangilash, darsliklarni soddada tilda yozish va yozuvni ma'lum darajada tartibga solish orqali savodxonlikni oshirish mumkin, degan fikrni ilgari suradi. Behbudiy uchun muhim masala yozuvning o'zi emas, balki uning xalqni ma'rifatga olib borishdagi samaradorligi edi.

Abdulla Avloniy ham pedagog sifatida yozuv masalasiga ehtiyotkorona yondashgan. U eski yozuv asosida tuzilgan darsliklar orqali yangi usul maktablarida ta'lim berish mumkinligini amalda ko'rsatdi. Avloniy asarlarining katta qismi arab yozuviga yozilgan ham uning bu yozuvni ma'rifiy maqsadlar yo'lida faol qo'llaganini ko'rsatadi. Bu holat jadidlar eski yozuvni butunlay rad etmaganini, balki undan zamonaviy ta'lim manfaatlarini yo'lida foydalanishga harakat qilganini anglatadi.

Abdurauf Fitratning qarashlarida ham bu masalaga nisbatan murakkab va bosqichma-bosqich yondashuvni ko'rish mumkin. U arab yozuvining kamchiliklarini ochiq tanqid qilgan bo'lsa-da, yozuv masalasini keskin va majburiy tarzda hal qilish tarafdori bo'lmagan. Fitrat uchun asosiy masala - millatning savodli bo'lishi, ilm-fanga yaqinlashuvi edi. Shu bois u ayrim asarlarida yozuvni avvalo isloh qilish, keyin esa sharoit pishib yetilgach, yangi alifbo masalasini ko'rib chiqish mumkinligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, jadidlar eski yozuvni himoya qilish orqali madaniy meros masalasini ham ko'zda tutganlar. Arab yozuvida yaratilgan ulkan adabiy, tarixiy va diniy merosdan ajralib qolmaslik, yangi avlodni bu manbalarni o'qiy oladigan darajada tarbiyalash zarur, degan fikrlar jadid muhitida keng tarqalgan edi. Shu nuqtayi nazardan, eski yozuvni saqlab qolish yoki kamida muayyan davr davomida undan foydalanishni davom ettirish madaniy uzviylikni ta'minlash vositasi sifatida ko'rilgan.

Demak, jadidlarning eski o'zbek yozuviga munosabati bir yoqlama bo'lmagan. Ular bir tomondan yozuvning kamchiliklarini tan olib, uni isloh qilish yoki yangilash zarurligini tushungan bo'lsalar, ikkinchi tomondan, bu yozuvni milliy madaniyat va tarixiy xotira bilan bog'liq muhim omil sifatida ma'lum darajada himoya qilganlar. Bu holat jadidchilik harakatining murakkab va ko'p qirrali xarakterga ega ekanini yana bir bor ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Turkiston jadidlarining til masalasidagi qarashlari milliy uyg'onish harakatining muhim tarkibiy qismi bo'lgan. Ular tilni millat taraqqiyotining asosi, ma'rifat va madaniyatning bosh vositasi sifatida baholadilar.

Jadidlar faoliyati natijasida ona tilida ta'lim berish g'oyasi keng yoyildi, milliy matbuot shakllandi va adabiy tilning rivojlanishiga mustahkam zamin yaratildi. Ularning bu boradagi qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, milliy tilni asrash va rivojlantirish yo'lidagi sa'y-harakatlar uchun muhim tarixiy tajriba bo'lib xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Alimova D. Jadidchilik fenomeni. –T.: Akademiya nashriyoti, 2022.
2. Ишанходжаева З. Репрессивная политика советской власти и культура Узбекистана: трагедия выживания (1925-1953 гг.). –T.: "Тафаккур", 2011.
3. Solihov Mijon Buzruk. O'zbek adabiyotida millatchilik ko'rinishlari. – T.: "O'zdamnashr". 1933.
4. Z.V.To'g'on. Bugungi Turkiston va yaqin moziysi. – Qohira.: "Matba'atul-e'timod". 1939.
5. Z.V.To'g'on. Hatirlalar. – T.: "Turkiye diyanet vakfi yayinlari". 2019.
6. Ne'mat Hakim. Tag'in imlo janjali // "Turkiston" gazetasi. 1923-yil 29-sentyabr.
7. Zoda A. R. O'ruscha o'qimoq qachon kerak bo'ladi // "Sadoyi Farg'ona" gazetasi. 1914-yil № 57.
8. Ashurali Zohiriy. Ona tili: // Ashurali Zohiriy // "Sadoyi Farg'ona" gazetasi. 1914-yil 13-aprel.
9. Uzoqov H. O'zbek lug'atshunosligining iftixori // "O'zbekiston ovozi" gazetasi. 1992-yil 28-yanvar.
10. Nurmonov A., Mahmudov N. O'zbek tilshunosligi tarixi. – T.: "Kamolot-qatortol" nashriyoti. 2000.
11. Mirzamidinova Sh. (2026) The personality, activities, and legacy of Ashurali Zohiriy. *Oriental Journal of History, Politics and Law*.
12. Mirzamidinova Sh. (2026) Jadidism In Turkestan In The Early Twentieth Century. *International Journal of History and Political Sciences*.